

YANGI O‘ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G‘ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI

To‘yeva Muhayyo Shuhrat qizi

TDPU 2-bosqich magistranti (O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangilanayotgan O‘zbekistonda ayollarning ilimga bo‘lgan qiziqishi, ularning hayotdagi maqsad va vazifalari, oiladagi o‘rni va mavqeyi, jamiyatdagi ular erishayotgan yutuqlar va ularga bo‘lgan shavqatsiz munosabatlar va G‘arblik ayollarning jamiyatdagi o‘rnining qiyosiy tahlili va ularning huquqlari oid qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, emansipatsiya, siyosiy faollik, demokratiya, globallashuv, parlament, liderlik, inson huquqlari, kamsitish, tahqirlash, zo‘ravonliksiz hayot.

ПОЛОЖЕНИЕ ЖЕНЩИН АРИФА И ЖЕНЩИН ЗАПАДА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНСКОМ ОБЩЕСТВЕ И ИХ ПРАВА

Туева Мухайё Шухрат кизи

Магистрант 2 курса ТДПУ (Узбекистан)

Аннотация: В данной статье интерес женщин современного Узбекистана к науке, их цели и задачи в жизни, их место и положение в семье, достигнутые ими достижения в обществе и недоброжелательное отношение к ним, а также сравнительный анализ выражены роль западных женщин в обществе и взгляды на их права.

Ключевые слова: гендерное равенство, эмансипация, политическая активность, демократия, глобализация, парламент, лидерство, права человека, дискриминация, унижение, жизнь без насилия.

THE POSITION OF ARIFA WOMEN AND WESTERN WOMEN IN THE NEW UZBEKISTAN SOCIETY AND THEIR RIGHTS

Toyeva Muhayyo Shuhrat qizi

2nd master's student of TSPU (Uzbekistan)

Annotation: In this article, the interest of women in modern Uzbekistan for science, their goals and tasks in life, their place and position in the family, the achievements they achieve in society and the unkind attitude towards them, and a comparative analysis of the role of Western women in society. and views on their rights are expressed.

Key words: Gender equality, emancipation, political activism, democracy, globalization, parliament, leadership, human rights, discrimination, humiliation, life without violence.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirayotgan islohatlardan ko‘zlangan maqsad insonlar hayotini ularning yashash sharoitini yanada yaxshilash va imkoniyatlarni kengaytirishdan iborat. O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy - siyosiy faolligini oshirishdan ko‘zlangan maqsad ularning jamiyatda, oilada mavqeni yanada mustahkamlash va davlatni rivojlanishida ularning qo‘shadigan hissasi qay darajada yuqori ekanligini e’tirof etish.

Ayollarimizning mavqeni jamiyatda va davlat boshqaruv siyosatida oshirishimiz nafaqat oilalarning gullab-yashnashiga, qolaversa davlatning ham yanada rivojlanishiga ham hissa qo‘shgan bo‘lamiz. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Bundan buyon O‘zbekistonda biror-bir ayol davlat vajamiyatning e’tiboridan chetda qolmaydi”¹⁵, - deb takidlaganlar o‘z nutqlarida.

Dastlab e’tiboringizni ibtidoiy jamiyatning ilk davridagi ijtimoiy tuzum “Matriarxat” (lot.mater-ona va Yun.arch-ibtido,hokimiyat;aynan-ona hukumronligi)

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Xotin qizlar bayrami munosabati bilan tashkil etilgan tantanali marosimdagi nutqlaridan”. Toshkent ,2021 yil 6 mart.

davri bilan boshlanganligi ham bejiz emas ularda boshqaruvchilik qobiliyati mavjudligidan dalolat beradi. Ibtidoiy jamiyatda ham birlashtiruvchilik, to‘dani ortidan ergashtira olish, ishbilarmonlik va to‘dani boqish uchun oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish kabi masalalarni o‘z zimmasiga olishgan bu ayollar ishlab chiqarish kuchlarining , xususan dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi va uy xo‘jaligining ajralib chiqishi natijasida o‘z o‘rnini “patriarxat” jamoasiga bo‘shatib berdi.

Movoronnahr davlatida arablar istelosi natijasida islom qonun-qoidalari o‘rnatila boshlandi. Ayollarning vazifalari uy yumushlari va bola tarbiyasi bo‘lib qoldi . Biroq islom ulamolari Qur‘on ayollarga jamoat ishlarida qatnashish huquqini berganligini ta’kidlaydilar: “Erkaklar xotinlar ustidan (oila boshlig‘I sifatida doimo) qoim turuvchilardir. Sabab – Alloh ularning ayrimlari (erkaklar)ni ayrimlari (ayollar)dan (ba’zi xususiyatlarda) ortiq qilgani va (erkaklar o‘z oilasiga) o‘z mol-mulklaridan sarf qilib turishlaridir. (Ayollar ichida) solixalar- bu (Allohga va eriga) itoatli, g‘oyibga allohga saqlaganicha himoyatli (ya’ni erlarining sirlari, mulklari va obro‘larini saqlovchi)lardir”¹⁶.-“Niso” surasi 34-oyat. Shunday ekan insolarga buni to‘g‘ri tushintirish va ularning jamiyatdagi o‘nini bilishda ko‘maklashish bizning va sizning vazifamiz. Shuningdek Qur‘onda ayollarning imkoniyatlarini tenglashtirishga ham alohida etibor qaratishga. Tarixan islomiy jamiyatlarda ayollarning roli uy ichida bo‘lgan, bu esa ayol uchun imkoniyatlarni cheklagan va to‘siqlar yaratgan. Muhammad s.a.v payg‘ambarligi davrida va ilk islom davrida ayollarga katta erkinliklar berilgan. Mo‘minlarning onalari deb atalgan Muhammad s.a.v.ning ayollari Islomda ayollar uchun mukammal ayol timsoli sanalgan. Ilk islom davrida uning ayollari turli rahbarlik sohalarida katta ahamiyatga ega edilar. Xadicha binti Xuvaylid Muhammad s.a.v.ga turmushga chiqishdan oldin nafaqat iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyat qozongan, balki Islomni birinchi qabul qilgan va ilk islom davrining shov-shuvli tarixida Payg‘ambar s.a.v.ga yordam bergan ayollardan hisoblanadi.

¹⁶ Qur‘oni Karim 2021.01.15 “Niso” surasi 34-oyat

Payg‘ambar s.a.v. ayollarga yuqori rahbarlik lavozimlarini egallashga ruxsat bergan. Biroq, uning vafotidan keyin ayollarning jamiyatdagi o‘rni erkaklar hukmronligi, patriarxal jamiyatdan, kelgan hadislar va Qur‘on oyatlarining noto‘g‘ri tafsirlari tufayli cheklab qo‘yilgan. Biroq, butun Islomdagi ayollarning rolini umumlashtirish qiyin, chunki Islomning turli sohalar va Qur‘on oyatlarining bir nechta talqinlari mavjud bo‘lib, ular Islom jamiyatlarida ayollarning rolini o‘z qarashlari bilan belgilaydilar.

Zamonaviy islom jamiyatida gender tengligiga erishish uchun harakat qilgan. Biroq, bu harakatning rivojlanishi turli arab mamlakatlarida va Islomning turli sohalarida farq qiladi, chunki yangi talqinlar islom jamiyatlarida ayollar uchun gender tengsizlikni shakllantiradi.

Xo‘sh xonliklar davrida ayollar mavqe qanday edi? Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonligi davrida yashagan turli toifa ayollar tomonidan madrasa, maktablar faoliyati va boshqa ezgu ma‘rifiy amallarga atab o‘z boyliklarini xayr-ehson qilinganini tasdiqlaydi. Shuningdek, O‘zbekiston kino, foto va ovozi hujjatlar Milliy arxivida saqlanayotgan suratlar ko‘rgazmasida o‘zbek milliy libos va taqinchoqlari, hunarmand, san‘atkor, ijodkor va boshqa soha ayollarining ish jarayondagi tasvirlaridan iborat fotoko‘rgazma, arxiv manbalari ayollarimizning davlatchilik tarixida tutgan o‘rni va mavqeni hujjatli asosda ifodalab beradi. Qo‘qon malikasi, Ming oyim va uning kelini Nodira-begimning ma‘rifat, iqtisodiy hayot va davlat boshqaruvdagi faoliyati, turli manbalarda xotin-qizlar tomonidan ijtimoiy hayot, maorifni taraqqiy etishida amalga oshirgan homiylik, bunyodkorlik ishlari, yangicha fikrlovchi jadid ayollarining matbuotdagi chiqishlari ham ayollarning hayot tarzidan dolat beradi. Bizning ayollarimiz turi davlarda ham o‘z o‘rni va mavqeni yo‘qotmaganini va jamiyat hayotida nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etganini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun qonunchilik bazasi yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda u mustahkamlanmoqda. Xususan, Konstitutsiyamizning 46-moddasida “xotin-qizlar va

erkaklar teng huquq”¹⁷larga ega ekanligi belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 19-moddasida er-xotinlar oilada teng huquqlarga ega bo‘lib, teng mas’uliyat yuklaydilar, 21-22-moddalarida esa bolalarni tarbiyalash masalalari va oilaviy hayotning boshqa masalalari er-xotinning birgalikdagi va birgalikda hal etilishi belgilab qo‘yilgan. turmush o‘rtoqlarning har biri o‘z kasbi, kasbi, yashash joyi va yashash joyini tanlashda erkindir deb ko‘rsatilganligiga qaramasdan bugungi kunda ayollarimizga nisbatan shafqatsiz munosabatlardan tahqirlangan ayollar, yo bo‘lmasa qadr-qimmatini kamsitilgani, obro‘silantirayotganini yoki haligacha qonunda bor aslida yo‘q bo‘lgan teng huquqliligimizni aytimiz kerakmas nazaramizda. Xo‘sh bularga qachon barham beramiz, bunaqa isnot va tahqirlashlardan qachon qutilamiz, qachon biz xoxlagan kasbimizda ishlab erkaklar bilan yelkama yelka turib jamiyatni rivojlanishida hissa qo‘shamiz? Javob o‘zimizda hurmatli ayollar siz qachon o‘z qadringizni baland tutib qo‘lingizdan keladigan ish yo o‘qishni kasbingiz yo mehnatingiz ortidan topgan daromadingizni oilangizga olib kirib o‘z xissangizni qo‘shib o‘zingizni boqimandalikdan saqlaganingizda, tutqunlik zanjirlarini uzib oqilalik bilimlilik olimalik liboslarini kiyib qutilamiz. Shu o‘rinda G‘arblik ayollarning faoliyatini ham tahlil etsak ular jamiyatda, davlat boshqaruvda qanday movqeda? Ayollar huquqlari butun dunyo bo‘ylab ayollar va qizlar uchun da’vo qilingan haq va huquqlardir. “Ular 19-asrda ayollar huquqlari harakati va 20-21-asrlarda feministik harakatlar uchun asos bo‘ldi. Ba’zi mamlakatlarda bu huquqlar institutsionalizatsiya qilingan yoki qonun, mahalliy urf-odatlar va xatti-harakatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi, boshqalarida esa ular e’tiborga olinmaydi va bostiriladi. Ular inson huquqlarining kengroq tushunchalaridan ayollar va qizlarning erkaklar va o‘g‘il bolalar foydasiga huquqlarni amalga oshirishiga qarshi o‘ziga xos tarixiy va an’anaviy tarafkashlik haqidagi da’volar bilan farqlanadi¹⁸”. Ya’ni ayollar o‘z tanalaridan o‘z xoxishlariga ko‘ra foydalanishlari ularning zo‘ravonliklarga va shafqatsiz munosabatlarga va tahqirlanib ulardan foydalanishlariga yo‘l qo‘ymaslik g‘oyasini

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 9 bob 46-moddasi Toshkent 2021 yil 8 yanvar

¹⁸ Xosken, Fran P., Inson huquqlari bo‘yicha har chorakda "Ayollar huquqlarining ta’rifiga to‘g‘ri", jild. 3, No 2. (1981 yil may), 1-10-betlar.

ilagari surishdi. Qadimgi Shumerdagi ayollar mulk sotib olishlari, egalik qilishlari, sotishlari va meros qilib olishlari mumkin edi.¹⁹Bu ularning davlatdagi ma'lum bir mavqeyga ega ekanliklaridan dalolat beradi.Ular o'zlariga meros qoldirilgan buyumlardan foydalanish ,tasarruf etish va sotish huquqiga egaliklaridan dalolat beradi.

Qadimgi Misrda ayollar qonun ostida erkak bilan bir xil huquqlarga ega edilar, ammo haqli huquqlar ijtimoiy tabaqaga bog'liq edi . Er mulki onadan qizga ayol nasliga o'tdi va ayollar o'z mulklarini boshqarish huquqiga ega edilar. "Qadimgi Misrdagi ayollar sotib olishlari, sotishlari, qonuniy shartnomalar bo'yicha sherik bo'lishlari, vasiyatnomalar ijrochisi va qonuniy hujjatlarga guvohlik berishlari, sudga da'vo qilishlari va farzand asrab olishlari mumkin edi"²⁰. Misda ham ayollar huquqlari qonunlar bilan tartibga soligani va ularning shaysiy mulkalarini o'zlari tasarruf etish huquqiga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Erta Vedik davridagi ayollar hayotning barcha jabhalarida erkaklar bilan teng maqomga ega edilar Patanjali va Katyayana kabi qadimgi hind grammatikachilarining ishlari ayollarning ilk Vedik davrida ta'lim olganligini ko'rsatadi. " Rigvedik oyatlar ayollar etuk yoshda turmushga chiqdi va, ehtimol, swayamvar yoki Gandharva nikohi deb ataladigan jonli munosabatlar deb ataladigan amaliyotda o'z erlarini tanlashda erkin"²¹bo'lganligini ko'rsatadi .Ya'ni hind tarixi shuni ko'rsatadiki ularning ayollari o'rta asrlarda ham o'z mulkiga egalik qilish va erlarini o'z xoxishlari yoqtirishlari asosida tanlab ,hech kimning ta'ziqi va zo'ravonliklarisiz turmush qurish huquqiga ega bo'lishgan.

Qadimgi Yunonistonning shahar shtatlarida ko'pchilik ayollar siyosiy va teng huquqlarga ega bo'lmasalar ham, ular Arxaik davrga qadar ma'lum bir harakat erkinligiga ega edilar. Qadimgi Delfi , Gortin , Fesaliya , Megara va Spartada o'sha davrdagi xususiy mulkning eng nufuzli shakli bo'lgan yerga egalik qilgan"²² -ayollar haqida ham ma'lumotlar mavjud.

¹⁹ Kramer, Samuel Noah (1963), *Shumerlar: ularning tarixi, madaniyati va xarakteri* , Chikago, Illinoys: Chikago universiteti matbuoti, p. 78,

²⁰ Joshua J. Mark (2016 yil 4 noyabr). "[Qadimgi Misrdagi ayollar](#)" . *Jahon tarixi entsiklopediyasi* . 2017 -yil 26-iyulda olingan

²¹ *Majumdar, RC* ; Pusalker, AD (1951). "XX bob: Til va adabiyot". *Majumdar, RCD* ; Pusalker, AD (tahrirlar). *Hind xalqining tarixi va madaniyati, I jild, Vedik davri* . Bombay: Bharatiya Vidya Bhavan. p. 394. OCLC 50054516

²² Gerxard, Ute (2001). *Ayollar tengligini muhokama qilish: Evropa nuqtai nazaridan feministik huquq nazariyasiga* . Rutgers universiteti nashriyoti. p. 33

Rim huquqi, Afina huquqiga o'xshash, erkaklar tomonidan erkaklar foydasiga yaratilgan. Ayollarning ommaviy ovozi va jamoat roli yo'q edi, bu faqat 1-asrdan miloddan avvalgi 6-asrgacha yaxshilandi. Qadimgi Rimning erkin tug'ilgan ayollari fuqaroligi bo'lmagan yoki qullarga taalluqli bo'lmagan qonuniy imtiyoz va himoyalarga ega bo'lgan fuqarolar edi. Biroq, Rim jamiyati patriarxal edi va ayollar ovoz berishlari, davlat lavozimlarini egallashlari yoki harbiy xizmat qilishlari mumkin emas edi. Yuqori tabaqadagi ayollar nikoh va onalik orqali siyosiy ta'sir ko'rsatdilar. Rim respublikasi davrida, aka-uka Grakx va Yuliy Tsezarning onalari o'g'illarining martabasini ko'targan namunali ayollar sifatida qayd etilgan. Imperatorlik davrida imperator oilasi ayollari katta siyosiy hokimiyatga ega bo'lishlari mumkin edi va ular muntazam ravishda rasmiy san'atda va tangalarda tasvirlangan"²³. Barchamizga ma'lumki Rim qonunlar joriy etilgan davlat sifatida qadimgi davlarda nom qozogan davlat bo'lishiga qaramasdan ayollarning siyosiy huquqlari va ovozlari hisobga olinmagan, ayollar nikoh va onalik orqali siyosiy ta'sir ko'rsatishgan va shorqali o'z obro'larini saqlab qolishgan.

Tarixiy va qadimiy Xitoy bo'ylab ayollar pastroq deb hisoblangan va Konfutsiy qonuniga asoslangan huquqiy maqomga ega edi. Imperator Xitoyda "Uch itoatkorlik" qizlarni otalariga, xotinlarni eriga va bevalarni o'g'illariga itoat qilishga undagan. Ayollar biznes yoki boylikni meros qilib olishlari mumkin emas edi va erkaklar bunday moliyaviy maqsadlar uchun o'g'il farzand asrab olishlari kerak edi²⁴. Ko'ryapmizki Xitoyda ham ayollar huquqlari havas qilsa arzugulik emas barchamizga ma'lumki qadimgi va navqiron Xitoyda axloq, odob, otasi va eriga itoatkorlik muhim o'rin egallagan ularning ijtimoiy –siyosiy hayotida.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak O'rta asrlarda G'arb ayollarining huquqlari ham erkaklarnikidan pasda bo'lgan. Yangi davlarda ayollar o'z huquqlarini o'rnatishga harakat qilib bir qancha harakatlar olib borishgan.

²³ [Eva Kantarella](#), *Pandoraning qizlari: yunon va rim antik davrida ayollarning roli va holati* (Jons Xopkins universiteti nashriyoti, 1987), 140–41-betlar; JP Sullivan, "Martialning jinsiy munosabatlari", *Philologus* 123 (1979), p. 296, xususan, jinsiy erkinlik haqida

²⁴ [Smit, Bonnie G](#) (2008). *Jahon tarixidagi Oksford ayollar entsiklopediyasi: 4 jildli to'plam*. London, Buyuk Britaniya: Oksford universiteti nashriyoti. 426–27-betlar

Ayollar, qachonki siz, avvalo, o‘zingiz huquqingizni bilar ekansiz shunda sizning huquqlaringizni jamiyat va oila a‘zolaringiz tan olishadi, agar siz shu oddiy va biroz murakkab qonunlarimizda yozilgan huquqlaringizni bilmadingizmi boshqalardan xafa bo‘lish o‘rinsiz nazarimda .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Xotin qizlar bayrami munosabati bilan tashkil etilgan tantanali marosimdagi nutqlaridan”. Toshkent ,2021 yil 6 mart.
2. Qur’oni Karim 2021.01.15 “Niso” surasi 34-oyat
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 9 bob 46-moddasi Toshkent 2021 yil 8 yanvar
4. Xosken, Fran P., Inson huquqlari bo‘yicha har chorakda "Ayollar huquqlarining ta’rifiga to‘g‘ri", jild. 3, No 2. (1981 yil may), 1-10-betlar.
5. *Kramer, Samuel Noah (1963), [Shumerlar: ularning tarixi, madaniyati va xarakteri](#) , Chikago, Illinoys: Chikago universiteti matbuoti, p. 78,*
6. *Joshua J. Mark (2016 yil 4 noyabr). ["Qadimgi Misrdagi ayollar"](#) . [Jahon tarixi entsiklopediyasi](#) . 2017 -yil 26-iyulda olingan*
7. *[Majumdar, RC](#) ; *Pusalker, AD (1951). “XX bob: Til va adabiyot”. [Majumdar, RCD](#) ; *Pusalker, AD (tahrirlar). [Hind xalqining tarixi va madaniyati, I jild, Vedik davri](#) . Bombay: Bharatiya Vidya Bhavan. p. 394. OCLC 50054516***
8. *Gerxard, Ute (2001). [Ayollar tengligini muhokama qilish: Evropa nuqtai nazaridan feministik huquq nazariyasiga](#) . Rutgers universiteti nashriyoti. p. 33*
9. ¹ *[Eva Kantarella](#) , Pandoraning qizlari: yunon va rim antik davrida ayollarning roli va holati (Jons Xopkins universiteti nashriyoti, 1987), 140–41-betlar; JP Sullivan, "Martialning jinsiy munosabatlari", Philologus 123 (1979), p. 296, xususan, jinsiy erkinlik haqida*
10. *Smit, Bonnie G (2008). [Jahon tarixidagi Oksford ayollar entsiklopediyasi: 4 jildli to‘plam](#) . London, Buyuk Britaniya: Oksford universiteti nashriyoti. 426–27-betlar*